



Миришкор тумани ҳокимлиги

A.Sh.Eshmurodov

Sh.M.Aminov

A.SH.YAZDURDIYEV

1. Viloyat hokimining 2025-yil 13-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasi tomonidan Mirishkor tumani hududida joylashgan “Alang-1 va Alang-2 ko‘llari”ning amalda foydalanib kelinayotgan (egallab turgan) yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida”gi 628-4-0-Q/25-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ta’minlansin. 2. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Sodiqov) bir kun muddatda mazkur qarorni viloyat hokimligining "gov.uz/oz/qashqadaryo" rasmiy veb-saytida e‘lon qilsin.

Муддат: 2025-yil 23-dekabr



Хужжат коди: **ZQ98287988**

№02-1006

2025-yil 15-dekabr

F.Q.G‘ulomov

Tuman hokimi





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2025-yil 13-dekabr

628-4-0-Q/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo
irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasi
tomonidan Mirishkor tumani hududida joylashgan “Alang-1 va Alang-2
ko‘llari”ning amalda foydalanib kelinayotgan (egallab turgan) yer
uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qaroriga muvofiq, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2025-yil 3-oktyabrdagi 01-10/2984-son xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10 va 21¹-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. “YERELEKTRON” AATga A1710233021/1 va A1710233027/6 raqami bilan kiritilgan yer uchastkalariga viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi, vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiyasi tomonidan Mirishkor tumani hududida joylashgan, amalda foydalanib kelinayotgan (egallab turgan), qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan “Alang-1 ko‘li”ning 1446,0 gektar va “Alang-2 ko‘li”ning 954,0 gektar - jami 2400,0 gektar yer maydonlari ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga (G'.Hamroyev) "Alang-1 va Alang-2 ko'llari"ning amalda foydalanib kelinayotgan (egallab turgan) yer maydonlarini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlab, yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

4. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi bilan birgalikda "Alang-1 va Alang-2 ko'llari"ning amalda foydalanib kelinayotgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

5. Ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining "gov.uz/oz/qashqadaryo" rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari U.Uzakov va viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 13-dekabrdagi
628-4-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya havza boshqarmasi huzuridagi
meliorativ ekspeditsiya tasarrufidagi, Mirishkor tumani hududida joylashgan "Alang-1 va Alang-2 ko'llari" yer
maydonlarini xatlovdan o'tkazish natijasi to'g'risida**

MA'LUMOT

T/r	Hudud	Obyekt nomi	Jami yer maydoni, ga			Mintaqa maydonidagi yerlar, ga						Kanal foydalanishidagi yer maydonlari, ga (6+13)
			Jami:	Shundan		Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar	Qurilish bilan band bo'lgan yerlar (turar, noturar)	Qishloq xo'jaligi yerlari (dehqon va fermer xo'jaligi yerlari)	Kollektor	Turizm zonalari yerlari	Mintaqa foydalanishidagi yer maydonlari, ga (7-8-9-10-11-12)	
				Kanal o'zani maydoni	Mintaqa maydoni							
1	2	3	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Jami:			2 400,0	1 465,0	935,0	-	-	-	-	-	935,0	2 400,0
1	Mirishkor tumani	Alang-1	1446,0	935,0	511,0						511,0	1446,0

2	Mirishkor tumani	Alang-2	954,0	530,0	424,0						424,0	954,0
---	---------------------	---------	-------	-------	-------	--	--	--	--	--	-------	-------